



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI  
HOKIMINING  
QARORI**

2024-yil 30-sentabr

469-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati  
hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi  
“Kambag‘allikdan faravonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha  
birinchi navbatdagi chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-330-son qarori  
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi “Kambag‘allikdan faravonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-330-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

**QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi “Kambag‘allikdan faravonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-330-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan quyidagilar:

1-bandiga ko‘ra, “Kambag‘allikdan faravonlik sari” dasturini (keyingi o‘rinlarda – Dastur) amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatda chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

2024-2025-yillarda aholini kambag‘allikdan chiqarishning yo‘nalishlar va hududlar kesimidagi maqsadli ko‘rsatkichlari 2-3-ilovalarga muvofiq tasdiqlanishi;

2-bandiga ko‘ra, 2024-yil 1-dekabrga qadar tadbirkorlik faoliyati hamda aholining barcha qatlamlariga yashash va dam olishi uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida 2024 – 2025-yillarda 4-ilovaga muvofiq

tuman va shaharlarni jadal kompleks rivojlantirish, shu jumladan, ularda kamida bittadan mahallada “Yashil mahalla” loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi dasturlarning tasdiqlanishi, bunda mazkur tuman va shaharlarda yuqori iqtisodiy o‘shishga turtki beruvchi ijtimoiy va infratuzilma loyihalari uchun Davlat budjetidan 2024-yilda 500 milliard so‘m va 2025-yilda 1 trillion so‘m mablag‘lar ajratilishi;

o‘n kun muddatda har bir tuman va shaharning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish sohalarida tadbirkorlikning rivojlanishiga turtki beruvchi 5 tadan “drayver” loyihalar ro‘yxatini tasdiqlashi va ularga zarur infratuzilmani yaratish uchun Davlat budjetidan 2024-2025-yillarda 1 trillion so‘m mablag‘ ajratilishining ta‘minlanishi inobatga olinsin.

3. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Markaziy bank va tijorat banklari hamda mahalliy hokimliklar bilar birgalikda aholini tadbirkorlikka jalb qilish hamda Kambag‘al oilalar reestriga kiritilgan oilalar (keyingi o‘rinlarda – kambag‘al oilalar) a‘zolarining bandligini ta‘minlash, tadbirkorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun:

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, “Biznesga birinchi qadam” dasturlari hamda mikromoliya tashkilotlari orqali joriy yil yil yakunigacha 4 trillion so‘m, 2025-yilda 15 trillion so‘m kreditlar ajratilishining ta‘minlanishi;

o‘n kun muddatda subsidiyalar turlarini maqbullashtirish va mazkur maqsadlar uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar hajmini kamaytirmagan holda kambag‘al oilalarga foizsiz ssuda va ajratish tartibi bo‘yicha takliflarni kiritishi;

tadbirkorlar bilan uchrashuvlarni muntazam ravishda o‘tkazib borish, ularning muammolarini hal qilish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning uzluksizligini ta‘minlash hamda kreditlash hajmini oshirib borish, tashabbuskorlarga bo‘sh yer maydonlarini auksion orqali sotish choralari ko‘rishi, tadbirkorlarning infratuzilma bilan bog‘liq muammolarini hal etishi ko‘rsatib o‘tilganligi inobatga olinsin va ijroga qaratilsin.

4. Viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (U.Uzakov), viloyat fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi (I.Tursunov) viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i (F.Muhammadiyev) bilan birgalikda, **bir oy muddatda** 2024-2025-yillarda paxta-g‘alla maydonlarini qisqartirish hisobiga “kompaniya – kooperativ – dehqon xo‘jaligi” tamoyili

asosida dehqonchilik va bog‘dorchilik tashkil etish uchun yer maydonlarni kambag‘al oilalarga 30 yilgacha ijaraga berish bo‘yicha qaror loyihasini ishlab chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritgin.

5. Viloyat hokimining o‘rinbosari (A.Qobilov), viloyat maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi (U. Oripov), viloyat iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Maxmadaliyev) hamda tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-239-qaroridan kelib chiqib, umumta‘lim maktablarining bo‘sh turgan yer va bino-inshootlarida xorijiy tillar, kasb-hunarga o‘qitish va axborot texnologiyalari va dasturlash bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish hamda maktabgacha ta‘lim bilan qamrov darajasini 2025-yil yakuniga qadar 80 foizga yetkazish bo‘yicha dasturni **ikki oy muddatda** Vazirlar Mahkamasiga kiritgin;

viloyat sport boshqarmasi (V. Ro‘ziyev) 2024-yil yakuniga qadar har bir umumta‘lim maktabida, “Barkamol avlod” bolalar maktablarida, shu jumladan, xususiy sektorni jalb qilgan holda maktabdan tashqari ta‘lim va sport to‘garaklari tashkil etilishini ta‘minlasin.

6. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas‘ul va shaxsiy javobgar etib viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Qodirov, viloyat hokimining o‘rinbosari A.Qobilov belgilansin.

**Viloyat hokimi**



**M.Azimov**